

## G'O'ZANING ASOSIY ZARARKUNANDALARI VA ULARGA QARSHI KURASHNING AYRIM USULLARI

*G'ofurova Ominaxon Muhammadzikirovna*  
*Farg'ona davlat universiteti*

**Abstract.** This article provides information about the pests and pests of the cotton plant, the morphological structure of the cotton plant grown in the conditions of Uzbekistan, pests and measures to combat them.

**Key words:** Gassypium, growing horn, monopodial, sympodial, ashirkon, common cotton, jaidari cotton, Egyptian cotton, bollworm, gorse, mingdevona, tunlam, soybean pests, wormwood tunlam, carodrina, gamma tunlama, fungus, cotton moth, corn borer, plant leaf eaters and their pests.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada g'o'za o'simligining zararkunandalari va tunlamlari O'zbekiston sharoitida o'stirilgan g'o'za o'simligining morfologik tuzilishi, zararkunandalari va ularga qarshi kurash chora tadbirlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Gassypium, o'suvchi shox, monopodial, simpodial, ashirkon, oddiy g'o'za, jaydari g'o'za, misr g'o'zasi, ko'sak, chanoq, mingdevona, tunlam, soya zararkunandalari, shuvoq tunlami, karodrina, gamma tunlami, g'umbak, g'o'za kuyasi, makkajo'xori parvonasi, o'simlik bargxo'rlari va ularning zararkunandalari.

**Аннотация.** В данной статье приведены сведения о вредителях и вредителях хлопчатника, морфологическом строении хлопчатника, выращиваемого в условиях Узбекистана, вредителях и мерах борьбы с ними.

**Ключевые слова:** Гасипиум, рожок моноподиальный, симподиальный, аширкон, хлопчатник обыкновенный, хлопчатник джайдари, хлопчатник египетский, совка коробочная, утесник, мингдевона, тунлам, вредители сои, полынь тунлама, кародрина, гамма тунлама, грибок, хлопковая моль, кукурузный мотылек, листоеды растений и их вредители.

O'zbekistonning haqiqiy boyligi va mulki uning mehnatsevar, sahiy va mehmondo'st xalqidir.

Jamiyatning eng oliy boyligi bo'lgan halq abadiy qadriyatlarini, qudratli salohiyatini o'zida jamlagan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish va jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo'lib xizmat qiladi. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohatlar va tub o'zgarishlar yo'lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta'minlab beradi.

Bu omilning kuchi va ta'siri, eng avallo yuksak ma'naviyat bilan, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. U aholini bilimdonlik darajasi, ish bilan bandlikning professional - malaka tuzilmasi va boshqa ko'pginasi shart sharoitlar orqali shakllanadi.

O'zbekiston paxtachilikka asoslangan bo'lib, bu yerda iqlim omillari tufayli yuqori hosil qilish imkonini beradi. O'zbekistonda ekiladigan Andijon 402, Farg'ona 4, Surxon tolasi yuqori sifatli tola qatoriga kiradi.

G'ozza zararkunandalarini o'rganish bir qancha muommalarni hal etishga olib keladi va dolzarbligini belgilaydi.

1. Aholini paxtadan tayyorlanadigan hom-ashyo bilan taminlash.
2. Tashqi savdoni rivojlantirish.
3. G'ozzani qayta ishlovchi korxonalarini ko'paytirish.

G'ozza-g'ozza avlodi (*Gossypium*) vakili bo'lib, bularning asil vatanida ko'p yillik o't va buta shaklidagi o'simliklar hisoblandi. Ular yovvoyi xolda xam o'sadi. G'ozza bizning sharoitimizda bir yillik o'simlik hisoblanadi, yani chigit ekilishi bilan undan hosil olinadi. G'ozzaning o'q ildizi juda kuchli rivojlangan bo'lib, yerga chuqur kirib boradi. Poyasi tik chiqqan va shoxlangan, shoxlari ikki xil bo'ladi. Tik o'sgan shoxlari monopodial (o'suvchi shox), yon shoxlar (simpodial) hosil shoxlari deyiladi. Xar bir bo'g'imdagi barg qarshisidan mono paydo bo'ladi. Mono avval gulga, keyin ko'sakka aylanadi. Barglari oddiy, yirik, 3-6-7 bo'lakchali, uzun bandli, ikkita yonbargchali bo'ladi. Guli va qo'sh gulqo'rg'onli kosachabarglari qo'shib o'sgan, 5-tishli, ost kosachali bo'ladi. Gultoji 5ta ost tomoni tutashgan. G'ozza guli atiga bir kun ochilib turadi. Yozda ertalab, kuzda tushda ochiladi. Ertalab gul ranggi och sariq kechga borib binfsha rangga kiradi. O'z-o'zidan va chetdan changlanadi. Mevasi 3 uyali ko'sakcha. Ko'sak ichidagi tanasi qancha uzun bo'lsa, bu nav shuncha qimmatbaho bo'ladi. Yovvoyi navlarini tola uzunligi 10mm, xozirgi davirda ekiladigan eng yaxshi navlarining tola uzunligi 65 mm, ni tashkil etadi. Bir chigitdagi tukchalarning soni 700 ga boradi. Shu tuk tolalari uchun g'ozza texnika o'simlik sifatida ekiladi. G'ozza avlodiga 35 tur kiradi. G'ozzaning 3 turi va xar xil navlari keng miqyosda tarqalgan.

Ashirkon yoki oddiy g'ozza-G.*Hirsutum*.

Gullari och sariq, bargining ostki qismi qizil, dog'siz, ko'saklari yirik, 4-5 uyali, chigit tukchalari uzun, oq tolali. Vatanni Meksika.

Misr g'ozzasi-G.*Barbadense*.

Yon barglari uzun, gullari sariq, tojbarglari qizil dog'li, ko'sagi 3-4 uyali, yirik, chigiti uzun va ingichka ipaksimon tuklar bilan qoplangan. Misr g'ozzasi asosan, O'zbekistonning janubiy hududlarda o'stiriladi.

Jaydari g'ozza-G.*Herbaseum*.

Gullari mayda ko'saklari 3-4 chanoqli yaxshi ochilmaydi. Tolasi malla, judda qisqa dag'al tolali. Vatanni Afrika, hosili kam. Xozirga kelib bu nav umuman ekilmaydi, faqat ilmiy tekshirish institutlaridagina foydalanish mumkin.

G'ozza mamlakatimizda yetishtiriladigan muxim o'simliklar qatoriga kiradi. Undan sanoat uchun qimmatli xomashyo tola, chigitdan esa oziq-ovqat sanoatida, kundalik turmushda keng qo'llaniladigan o'simlik yog'i olinadi.

Chigit oqsilga boy, chorva g'ozzapoya va ko'sak chanoqlaridan sintetik va mebel sano'atida ishlatiladigan plastmassa va furfulol ishlab chiqariladi.

G'ozza mamlakatimiz boyluklaridan biri, qishloq xo'jalik ekinlarining muxim qismi bo'lib, uni deyarli barcha qishloq xo'jalik adabiyotlaridan topish mumkin.

Entomofag va zararkunandalarning miqdoriy zichligini o'rganish may-avgust yangi butun vegetasiya davrida o'tkazildi. Kuzatish davomida havo harorati,

namlikning o'zgarishi, yog'ingarchilik bilan bog'liq xolatda, paxtani ikkinchi marta qayta ekish orqali paxta shiralarning faoliyati o'rganildi. Shiralar o'rganilganda paxta chiqa boshlashi bilan, apreldan mayning I-dekadasigacha katta g'o'za ko'sagiga kirishi kuzatildi. Bada shirasi butun iyul oyida kuzatildi. Avgust oyida shiralarning miqdoriy zichligi keskin kamayadi. May oyining III-dekadasi shiralarning miqdoriy zichligini eng ko'tarilgan bosqichi bo'lib, bir tun o'simlikda 200-300 ta shira mavjudligi kuzatildi.

**G'o'zaning kemiruvchi zararkunandalar.** G'o'zaning kemiruvchi zararkunandalari barcha organlarida uchrab, ildiz qismi zararkunandalari xammaxo'r zararkunandalar chertmoqchilar qoroton qo'ng'izlar, chirildoqlar kiradi. Hosil organlari zararkunandasi eng xafli hisoblanadi. Bundan tashqari beda, mingdevona shuvoq tunlami xam kuchli zarar keltirishi mumkin.

**G'o'za tunlami – Heliothis ormigera Hb.** Deyarli barcha paxta maydonlariga ko'sak qurtini uchratish mumkin. G'o'za tunlami 30-40 mm (qanotini yozgandagi xolati) katalikda bo'lib, tana uzunligi 12-20 mm boradi. Tanasi ko'kish – sarg'ish, kulranggacha o'zgaradi. Oid qanotlari markazida yuumoloq, yuqori qismida buyrakimon qoramtir dog'lar mavjud.

Orqa qanotlari oldingilariga nisbatan ochroq, keng to'q xoshiyali o'rtasida oysimon dog'lari bor. Kapalaklar jinsiy etuk bo'lmaganligi sababli, qo'shimcha o'simlik nektari bilan oziqlanadi. Baxorda kapalaklar uchib chiqadi. Baxorda tuproq 1°-16° dan oshganda kapalaklar uchib chiqadi. Tuxumlarni asosan begona o'tlarga qo'yadi. G'o'za tunlamining birinchi avlodi kam bo'ladi. Shonali davrida tuxum qo'ya boshlaydi. Zararkunanda yozning birinchi yarmida barvaqt rivojlangan o'simliklarga, ikkinchi yarmida esa kechki ekinlarga tushadi. G'o'za tunlamining tuxumi gumbazsimon, qovirg'ali bo'ladi. Qo'yilgan tuxumlar dastlab oqish keyin qo'ng'ir bo'ladi. Kapalaklar tuxumlarini asosan bittadan g'o'za poyalarining ichki o'suv nuqtalari yaqinidagi yosh barglarga tana gulyonbarglariga va tana xamda gul asoslariga qo'yadi. Shu bilan birga kapalaklar g'o'zasi g'ovlab o'sgan sernam dalalarda yoki dalaning chetki qisimlarida uchraydi.

Tuxumlardan bir hafta ichida qurtlar chiqadi. Qurtlar, och ko'k, boshli bo'lib, keyinchalik rangi to'qlanib, boshi qorayadi. Qurt tanasi mayda xilga va xolchalarga bilan qoplangan. 6 yoshli qurtlar o'simlikning qaysi qismida oziqlanishga qarab xardam sarg'ish tushgacha o'zgaradi.

Oziqlanib bo'lgan oxirgi yoshdagi qurtlar tuproqqa tushadi va bunda 5-12 sm chuqirlikda in hosil qilib, g'umbakka aylanadi. Baza ko'sak yoki makkjuxori so'tasi ichida g'umbakka aylanadi. Bu g'umbaklarning rangi och pushtidan-jigarranggacha o'zgaradi. G'umbakning bo'yi 17-21 mm keladi. Qorin qismining 10 segmentida parallel joylashgan ikkita bo'ladi. Oradan bir hafta o'tgach g'umbakdan kapalak uchib chiqadi. G'o'za tunlami 400 dan 3000 ga tuxum qo'yadi. O'sish davrida g'o'za tunlami 3-4 avlod berishi mumkin. Avlodlar rivojlanishi bir xil muddatda davom etmaydi. Mavsum boshida tunlam birinchi bo'g'inining ayrim bosqichlari nisbatan uzoq rivojlanadi, yoz davrida ular

jadallashadi VIII-IX oyidan boshlab yana sekinlashadi. Umuman g'o'za tunlami bir oy yoki 40 kun mobaynida tugallaydi.

**Mingdevona tunlami-Chloridea peltgera Schiff.** Bizda uchramaydi asosan isiq viloyatlarda kuzatilishi mumkin. Qurtlari boshqa tunlam qurtlaridan sertukligi bilan farqlanadi. Dastlab barg tana keyin gulni shikastlaydi.

**Shuvoq tunlami – Melideptrio scnttoso Schiff.** Paxta ekiladigan maydonlar, chetlarida begona o'tlar ko'p, bo'lsa, zichligi yuqori bo'ladi. Qurtlar asosan barg bilan oziqlanadi. Eng sevimli ozig'i shuvoq hisoblanib – shuvoq tunlami deyiladi. I – avlod IV-V boshida uchadi. Metall tusli tunlam – Syngrapha cirum bkexa G.

Tunlamlar asosan g'o'zaning barg,qisman tana va gulni zararlaydi. Qanotlarida kulishsimon dog'lar mavjud, kulrang tusda bo'ladi. Tuxumida oq g'ubor bo'lib tovlanib turadi. Qurti 32 mm keladi. qo'ng'ir qurtlar yonida oq chiziqlar mavjud.

**Barg zararkunandalari.** Zararkunandalar ichida kichik quruqlik tunlami – kardrina xozirda lyafigma avlodiga qo'shilgan bo'lsada, eski avlod nomi bilan karodrina ommalashib ketgan. Ayrim yillari miqdoriy zichligi keskin ko'payib xafli zararkunandalarga aylandi. Qarodrina xammaxo'r zararkunanda bo'lib 100 ortiq o'simlik turida oziqlanadi. Kichik yoshdagi qurtlarni barg etini qirtishlab eydi, katta yoshdagilar esa barglarini kemishirib chekalarini kemiradi, novdachlari mevaband, g'umbaklarini, gullarini yeb ayrim xolatlarda ko'sakni teshib kiradi.

Qishlovdan mart oyida chiqadi. kapalak tanasi 11-13 mm qanotlarini yozganda 23-24 mm keladi. Old qanotlari qoramtil kulrang, qanot chekalari kulrang xoshiyali, qanotlarida dog'lar bor. O'rta qismida buyraksimon qo'ng'ir dog', atrofi sariq g'uborli, yonida yumoloq dog' bo'lib zangsimon to'q sariq tusli o'rta qismi ajralib turadi. orqa qanotlari oqish kulrang, va tuklari oq yoki sarg'ish bo'ladi.

Kapalaklar gul nektari bilan oziqlanadi. Karadrina g'o'za tunlamidan farq qilib, o'z tuxumlarini to'p-to'p qilib qo'yadi, ularni qorin qismidan to'kilgan tuklari bilan yopadi. Qishlovdan chiqqan birinchi bo'g'in 2000 ta keyinngi bo'g'in 300-600 ta tuxum qo'yadi. Tuxum tovlanuvchi, ko'kish-sariq bo'ladi, tuxumi ko'payib kiyin to'q yashil qurt chiqadi. Qurt tanasi 24-32 ga to'liqsimon chiziqlar o'tgan. Bularni 3 oq yo'l 4 ga bo'lib turadi. Qurt uzunligi 30 mm kelib, uning tanasi siyrak qisqa tukchalar bilan qoplanadi.

II-yoshgacha bo'lgan qurtlar barglarda to'p-to'p bo'lib turadi. Oziqlarni barglarni teshib tashlashadi. III-martta tulanganlardan so'ng o'simlik bo'ylab xarakatlana boshlaydi. Zararlangan beda o'rilgandan kegin xam to'laligicha g'o'zaga o'tishadi. Kun isigach ular turli xil yoriqlarga, tuproq qatlamlariga tushib berkinishadi.

16-22 kun dovomida 6 yoshini kechirgan qurtlar erga tushib 5-15 sm tuproq qatlamiga g'umbakka aylanadi. G'umbak 10-15 mm sarg'ish qo'ng'ir, qorn segmentiningoxirida ikkita qilcha mavjud. Tashqi tuxum omillariga bog'liq ravishda g'umbaklardan 7-15 kunda kapalak chiqadi. I avlod rivojlanishi uchun 1

oy vaqt kerak bo'ladi. Karadrina asosan yosh o'simliklarga kiradi. Qari o'simliklar bilan oziqlangan kapalaklar xam tuxum qo'yadi.

Karodrini erta baxordan kech kuzga oziqa o'simligini almashtirib turadi.

**Gamma tunlami – Phytometra gamma λ.** Gamma tunlami hozirda xafli zararkunanda hisoblanmaydi. Yo'ng'ichka tunlami (sebarga) – Scotogramma tifali, Rott. Asosan ayrim xolatlarda hosil organlar xam zarar keltirishi mumkin. Yosh qurtlar barcha tuplam qurtlari singari barglarni kemirib yo'qotadi, bundan tashqari, qashqarbeda va otquloq tulamini keltirish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каюмова, Ё. К., Мухамедиева, И. Б. К., Гофурова, О. М., & Туйчиева, Х. З. К. (2021). ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ВАЛЕОЛОГИИ. Вестник науки и образования, (9-2 (112)), 16-20.
2. Sadokat, S. A., Ominakhon, M. G., & Maftuna, T. T. (2021). The Importance of the Study of Dendrofag Solids in the Fergana Valley. *Annals of Plant Sciences*, 10(12), 4467-4469.
3. Akbarova, M. X., Bekchonova, M. F., GOfurova, O. M., & Usmanova, T. E. (2021). The Medicinal Types Of Scutella (Lamiaceous) Group Spread Over Fergana Valley. *The American Journal of Applied sciences*, 3(04), 105-110.
4. Yuldasheva, S., Gofurova, O., & Askarova, G. (2022). PROSPECTS OF CROP GROWING AND SIGNIFICANCE. *Science and innovation*, 1(D6), 298-302.
5. Xalilovich, G. K., Mamatyusufog'li, M. A., Abdulazizovna, X. B., Maxammadzikirovna, G. O., & Tursunaliyevna, T. M. (2021). " THE IMPACT OF ENVIRONMENTAL POLLUTION ON THE VARIABILITY OF FRUIT GARDENS AND SOILKOMOMOKOMPLEXES (FERGANA-MARGILAN-QUVASOY INDUSTRIAL NODE)". *Journal of Contemporary Issues in Business & Government*, 27(4).
6. Tursunaliyevna, T. M. (2022). Soft of Wheat New Varieties in Cultivation Modern Technologies. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 63-66.
7. Maftuna, T., & Maftuna, S. (2022). IMPORTANCE OF PEA PLANT IN IMPROVING SOIL FERTILITY AND MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PEA PLANT. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 8, 13-15
8. Turkistonova Maftuna. Importance of pea plant in imporoving soil. Fertility and morphological characteristics of pea plant.//Europen Journal of Interdisciplinary Research and Development-2022.13-15 p.1
9. Sodikova, M. B. K., & Isagaliyeva, S. M. (2021). RHYACHITES AARATASS AND RHYNE KITES AURATAS S. SP. BIOECOLOGICAL PROPERTIES OF TYPES. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 1341-1346.